

SHAYBONIY ABDULLAXON II HUKUMDORLIGI DAVRIDA BUXORO XONLIGI

Nizomiy davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

Ergashev Nodirbek Erkinjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan bo'lgan eng yirik hukmdor, davlat arbobi, sarkarda ilm-fan madaniyat homiysi Abdullaxon II va u olib brogan siyosati, uning davridagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot, obodonchilik ishlari, isloxotlari va tashqi siyosati shuningdek uning tarixda tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Abdullaxon II, Samarqand, Islom dini, Siyosiy inqiroz, Harbiy yurishlar, Xorazim, Siyosat, Ijtimoiy adolat.

Annotation: In this article, the Bukhara Khoni, the largest dynasty of the Bukhara Khan, is a sponsorship of the Bukhara khandia, the political life, and hereditary policy of his brokei II and its broke up broke up briefed and its broke up broke up broke up broke up.

Keywords: Abdullah Khan II, Samarkand, Islamic, Political Crisis, Military Walks, Military Walks, Politics, Social Justice.

Аннотация: В этой статье Бухара Хони, крупнейшая династия Бухара - хана, является спонсорством Бухара Хании, политической жизни и наследственной политики его Броуи II и его расстроенных

Ключевые слова: Абдулла Хан II, Самарканд, Исламский, политический кризис, военные прогулки, военные прогулки, политика, социальная справедливость.

Abdullaxon II (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583—1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonkol hokimi 1512-1513-yillarda bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyichalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniixon vafotidan keyin

parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) bilan Koson yonida (1548), Mo'g'uliston xoni Abdurrashidxon va shayboniylardan Do'stum sultonlar qo'shiniga qarshi Forob yonida jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat-shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etgan; viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffaqiyatli qaytargan.

Keyingi yillarda 1552—1556 o'z mulkini g'arbga — Buxoro tomonga va janubiy-sharq Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu sa'y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556-yil u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro'z Ahmadxon vafot etgach 1556, darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi, 1557-yil mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. 1561-yil otasini davlat boshlig'i xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqara boshlaydi. Markaziy xokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan shayboniy sultonlar bilan kurashib Balx 1574, Samarqand 1578, Toshkent, Sayram, Turkiston 1583 va Farg'onani 1583 - yilda egallaydi.¹

1582-yil Dashtga yurish qilib Ulug'tog'ta qadar borgan. 1583-yil otasi Iskandarxon vafot etgach, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan Maymana va Garchiston 1583, shuningdek Badaxshon 1585-yildagi g'alayon, tartibsizliklarni bostirgan. Xorazmga ikki marta yurish (1594, 1596) qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukmronligini qayta tiklagan. Abdullaxon II mamlakat hududi yaxlitligini tiklash yo'lida qo'shni xorijiy davlatlar

¹ Vamberi H. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1991. 233-b

bilan ham kurash olib borgan. Masalan, Turkiya Movarounnahrda o'z ta'sirini kuchaytirish niyatida Abdullaxon II ga qarshi kurashda Bobo sultonga yordam bergan. Bobo sulton turk askarlari yordamida Nasaf yonida Abdullaxon II ga qarshi jang qilgan. Abdullaxon II safaviylar bilan Xuroson, G'ilon uchun kurashib ularni o'z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkent viloyatlarini olgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shom, Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon II ga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind (1583), Kashmir (1586) ni egallab, davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlagan.

Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi.²

Davlat boshqaruv haqida so'z borganda oldindan saqlanib kelgan an'analarni ba'zilarga o'zgartirish kiritadi Davlat tepasida tabiiy ravishda oliy hukmdor xon turgan. Oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug' yoshdagi namoyandaga o'tishi tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlangan bo'lsada, asosan XVI asrning 40-yillaridan boshlab sulola ichidagi oilaviy an'ana ustun chiqa boshlagan.³ Abdullaxon II davriga kelib esa, bu holat aniq bir shaklga tushgan. Shunga qaramay, shayboniylar sulolasidagi davomiylik masalasi so'nggi paytgacha muayyan shaklga ega bo'la olmagan. Shayboniylarda, ayniqsa, Abdullaxon II davrida valiahdga Balx viloyatini sovg'a qilish udum tusiga kirgan. Bu udum keyingi ashtarxoniylar sulolasi hukmronligida ham davom etgan. Abdullaxon II davlat boshqaruvdan boshqa sohalarda ham ko'plab islahotlarni ammalga oshirgan asosan iqtisodiy va qurulish sohalariga katta etibor bergan. Abdullaxon II qurulish sohasidagi ishlar diqqatga sazovor edi, Bularni manbalarda keltirilgan faktlar asosida ko'rib chiqamiz. Abdullaxon davrida Buxoro yaqindagi Sumiton (Jo'yibor) mavzesida Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Said (970-971– yil vafot etgan) mozori

² Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос ҳуқуқининг амалда қўлланиши. Scientific progress, 2(1), 1201-1207.

³ Бухоро тарихи sahifalari. Buxoro. 1998. 122-b

atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbog' 1558 – 1566 - yillarda, Buxoroda Abdullaxon madrasasi, hamom, Govkushon, Fathulla Qo'shbegi, mirakan Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu 1569 – 1570 yillarda, tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga ko'prik 1582 – yilda va boshqa inshootlar qurildi. Pul islohat katta shuhrat qozandi Abdullaxon II islohoti asosan, kumushning narxi oshishiga nisbatan kumush tangalarning qiymatini oshirishga qaratilgan edi. 1583 - yilga qadar yuqorida eslatilgan to'rtta yirik shaharda Iskandarxon nomidagi bir xil vazn va qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etiladi. 1560 - yildan keyingi 1583 yilgacha bo'lgan davr Abdullaxon II ning ko'plab jangu-jadallar davri bo'lib, bu yurishlar va o'zaro kurashlar katta mablag' talab etar edi. 1583 yilda otasi vafotidan so'ng oliy hukmdor bo'lgan Abdullaxon II o'z pul islohotining so'nggi qismini amalga oshirdi. Yahni, u kumush tangalar zarb etishni o'z poytaxti Buxoroda markazlashtirdi. Buxoroda Abdullaxon II nomidan har yili ko'p miqdorda kumush tangalar zarb etildi. Balx, Samarqand va Toshkentda esa tanga zarb etish keskin kamaytirildi. Shuningdek, Abdullaxon II shahar savdosidagi kundalik ehtiyoj mahsulotlari uchun mis tangalar zarb etishni yo'lga qo'ydi.⁴

Abdullaxon II islohoti asosan, kumushning narxi oshishiga nisbatan kumush tangalarning qiymatini oshirishga qaratilgan edi. 1583 yilga qadar yuqorida eslatilgan to'rtta yirik shaharda Iskandarxon nomidagi bir xil vazn va qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etiladi. 1560 yildan keyingi 1583 yilgacha bo'lgan davr Abdullaxon II ning ko'plab jangu-jadallar davri bo'lib, bu yurishlar va o'zaro kurashlar katta mablag' talab etar edi. Shuning uchun ham Abdullaxonga ham, uning raqiblariga ham katta miqdordagi pul zarur edi. 1583 yilda otasi vafotidan so'ng oliy hukmdor bo'lgan Abdullaxon II o'z pul islohotining so'nggi qismini amalga oshirdi. Yahni, u kumush tangalar zarb etishni o'z poytaxti Buxoroda markazlashtirdi. Buxoroda Abdullaxon II nomidan har yili ko'p miqdorda kumush tangalar zarb etildi. Balx, Samarqand va Toshkentda esa tanga zarb etish keskin kamaytirildi. Shuningdek, Abdullaxon II shahar savdosidagi kundalik ehtiyoj mahsulotlari uchun

⁴ Rajabov, O. (2021). “Тарихи Муллозода” асари—Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. 103-104 б

mis tangalar zarb etishni yo'lga qo'ydi. bunga yo'l qo'ymadi. Pirmuhammadxon Balxda qolib taxtni boshqarayotgan, uning nomiga xutba o'qitilib, tangalar zarb etilayotgan bo'lsa-da, Shayboniylar o'tkazgan pul islohotlari orasida Abdullaxon II ning islohati nisbatan muvaffaqiyatli bo'lib, bu islohot pul muomalasi inqiroziga barham berdi, kumushning davlat hududlaridan ko'plab chiqib ketishini to'xtatdi, xususiy metalni yana zarbxonalarga jalb etdi. Ushbu islohot Abdullaxon II ichki siyosatining bir qismi bo'lib, tranzit, halqaro va ichki shahar savdosining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.⁵

Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borgan. Bu davrda shayboniylar Eron, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan keng diplomatik, iqtisodiy, savdo aloqalari olib borganlar. Hozirgacha xalq orasida u yoki bu inshoot qurilishi Amir Temur yoki Abdullaxon II ga nisbat beriladi.

Abdullaxon II Muhammad Islomga ulug' bobolari "Imom Abu bakr Ahmad va Xo'ja Abu bakr Sa'dning mozorlarini ta'mirlash va uning yaqinida machit, madrasa, xonaqoh, saroy va chorbog' qurish to'g'risida farmon berdi. "Abdullanoma" asarida aytilganidek, bu yerda o'n yil mobaynida dono me'morlar va zabardast binokorlar jannatga o'xshagan binolarni qurdilar." Buxoro xoni Abdullaxon II o'zining butun faoliyatini mamlakatda tinchlik, osoyishtalik o'rnatishga, viloyatlar hukmdorlarining siyosiy ayirmachiligiga barham berishga, bo'lishib ketgan mamlakat va mintaqani birlashtirishga, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mintaqaning barcha hududlarini birlashtirish, hunarmandchilik va dehqonchilikni rivojlantirish, ichki va tashqi savdoga keng yo'l ochish, shahar hayotini jonlantirish, ilm-fan va san'at rivojiga muhim e'tibor berish, xonlik hududida ulkan bunyodkorlik va sug'orish ishlarini jadal yuksaltirish kabi maqsadlarini amalga oshirishga bag'ishladi.

Xullas, Abdullaxonning sa'y-harakatlari bilan butun Turkiston mamlakat yagona poytaxt atrofida birlashdi Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish uchun kurash olib borish bilan birga markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, mamlakat

⁵ Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигида ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан.

boshqaruviga katta e'tibor bo'ldi. Abdullaxon Amir Temurning davlat boshqaruvida kadrlar tanlash to'g'risidagi qoidalariga amal qildi. U viloyatlarga boshshliqlar tayinlar ekan ularga o'zingizni zohir va botinlaringizni adolat o'rnatish hamda xalq osoyishi bilan bezating, raiyatni rioya qilish v ularga muruvvatlar ko'rsatish bilan mamnun qiling" deb nasihat qiladi.⁶

Abdullaxon II davlat boshqaruvida mamlakatda katta obro'ga ega bo'lgan jo'ybor xo'jalariga suyandi. U mamlakat obodonchiligiga katta e'tibor berdi. Abdullaxon II davrida mamlakat iqtisodini sug'orma dehqonchilik asosida rivojlantirish maqsadida mamlakatning deyarli barcha katta - kichik daryolari va soylaridan dehqonchilikni rivojlantirish uchun imkoni boricha o'rinli va unumli foydalanildi. Chunonchi, 1568 yilda Murg'ob daryosidan katta kanal qazdirib, Mari shahri atrofidagi cho'l va biyobonlar suv olib borilib, u yerlarga "jon" ato etildi. Abdullaxon II davrida Tuyatortar kanalining barpo etilishi natijasida Jizzax vohasining Baxmal, G'allaorol, Forish tumani hududlari suv bilan ta'minlanib, bu yerlarda dehqonchilikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Forish tumanidagi "Abdulla Xon bandi"ning barpo etilishi ham Abdullaxon II tashabbusi bilan bog'liq. "Har ko'klamda o'sha darada ko'p sel to'planib, lekin uning suvi ekinga yetishmas edi. Shuning uchun buyurdi: Ahmadali otaliq Nayman o'sha darada Somon yo'li shaklida bir to'g'on qursin, toki dehqonlar o'sha joyda to'plangan suvni bo'lishib, ekinlarni sug'orsinlar". Ko'rinadiki, Abdullaxon II Jizzax vohasiga muhim e'tibor bergan. Voha shahar va qishloqlarining obod bo'lishida, sug'orish inshootlarining qurilishida, dehqonchilikning rivojlanishida Abdullaxon II xizmati katta. Vohada ko'pgina tarixiy joylar Abdullaxon II ning nomi bilan bog'liq. Vohadagi ko'pgina so'lim joylarda Abdullaxon II hordiq chiqarib, ov qilib, janglar oldidan harbiy mashqlar o'tkazgan.⁷

Abdullaxon II hukmronligi yillarida mamlakatning barcha hududlarida sug'orish inshootlarining qurilishi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga va shu asosda mamlakat iqtisodining yuksalishga katta ta'sir qildi. Mamlakatda tinchlik va

⁶ Boboev H. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Fan", 2004.

⁷ Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T. "O'qituvchi", 1994. 218-b

osoyishtalikning o'rnatilishi, mamlakat iqtisodining ko'tarilishi, shahar hayotining jonlanish, ilm-fan, adabiyot, san'at va boshqa sohaolarning yuksalishga olib keldi. Bu davrda Buxoro islom olamining yirik markazlaridan biriga aylandi. Abdullaxonning boy kutubxonasi bo'lib, o'sha zamon musulmon sharqidagi noyob kitob xazinalaridan biri edi.

Abdullaxon II ham temuriylar kabi bunyodkor hukmdor edi. U mamlakat poytaxti Buxoro, Toshkent, Balx kabi shaharlarda ko'plab me'moriy obidalar qurdirdi. Uning hukmronligi yillarida Buxoro xonligida ichki va tashqi savdo rivojlandi. Xonlikning xalqaro nufuzi oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T. "O'qituvchi", 1994.
2. Абдураимов М.А. Очерк аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI в первая половина XIX века. Ташкент, 1966.
3. Boboev H. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: "Fan", 2004.
4. Buxoro sharq durdonasi. T. "Sharq", 1997.
5. Buxoro tarixi sahifalari. Buxoro. 1998.
6. Vamberi H. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 1991.
7. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигида ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан.
8. Rajabov, O. (2021). "Тарихи Муллозода" асари–Бухоро мукаддас кадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба
9. O'zbekiston tarixi. 1-qism. II nashri (mas'ul muharirlar. A.Sagdullaev, B.Eshov) T. Universitet, 1999